


Volume II | Issue 3 | March-April | 2024

Journal of
RESEARCH
and **INNOVATIONS**

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ



ISSN: 2181-4058

Available online at www.imfaktor.com

 **IMFAKTOR**
Science driven pages

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-II, НОМЕР-3-4

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-II, ISSUE-3-4

ТОШКЕНТ - 2024

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 3-4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2024-3-4>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
2. Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
3. Якубжон Хатамович Юлдашов – қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, профессор,
4. Камалова Дильфуза Энуаровна – филология ф.б.ф.д (PhD)
5. Раззақов Шухрат Турсунович – техника фанлари номзоди, доцент
6. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент
7. Нематов Эркинжон Ҳамроевич – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент
8. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович – филология ф.б.ф.д (PhD)
9. Абдуллаева Садокат Шоназаровна – техника ф.б.ф.д (PhD)
10. Шарипов Козимжон Комилжонович – техника ф.б.ф.д (PhD)
11. Норматов Ғайрат Алижанович – техника ф.б.ф.д (PhD)
12. Бозорова Гульмира Зайниддиновна – филология ф.б.ф.д (PhD)
13. Убайдуллаев Фарход Бахтияруллаевич – қишлоқ хўжалиги ф.б.ф.д (PhD)
14. Каримова Дилафрўз Ҳалимовна Филология – филология ф.б.ф.д (PhD)
15. Маҳмудова Муаттар Мақсатуллаевна – филология ф.б.ф.д (PhD)
16. Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна – филология фанлари доктори

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 7.1 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

ABDINAZAROVA Xidoyatxon Oripovna

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)
dotsenti*

MO‘MINOV Doniyor G‘ulomovich

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Geografiya fanlari nomzodi
dotsent*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10935777>

O‘ZBEKISTON FARMASEVTIKA SANOATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNGA TA‘SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston farmasevtika sanoatining 2000-2023 yillardagi rivojlanish tendensiyalari o‘rganilgan. Shuningdek, mazkur tarmoqning respublika sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi va rivojlanish tendensiyalariga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar haqida to‘xtalib o‘tilgan. Tadqiqot so‘nggida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: farmasevtika sanoati, tarmoq ulushi, asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish, rivojlanish tendensiyalari, iqtisodiy o‘rish ko‘rsatkichlari, eng yuqori va past o‘rish ko‘rsatkichlari, geografik omillar, tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy, demografik va ekologik omillar.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ ВЛИЯЮЩИЕ ФАКТОРЫ

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены тенденции развития фармацевтической промышленности Узбекистана в 2000-2023 годах. Также обсуждались доля этой отрасли в промышленном производстве республики и факторы, влияющие на тенденции развития. По итогам исследования были сформулированы выводы и рекомендации.

Ключевые слова: фармацевтическая промышленность, доля отрасли, производство основных фармацевтических продуктов и лекарственных средств, тенденции развития, показатели экономического роста, наибольшие и наименьшие показатели роста, географические факторы, природные, экономические и социальные, демографические и экологические факторы.

DEVELOPMENT TRENDS OF THE PHARMACEUTICAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN AND ITS INFLUENCING FACTORS

ANNOTATION

The article examines the development trends of the pharmaceutical industry of Uzbekistan in 2000–2023. Also, the share of this industry in the industrial production of the republic and the factors affecting the development trends were discussed. Conclusions and recommendations were developed at the end of the study.

Keywords: pharmaceutical industry, industry share, production of main pharmaceutical products and drugs, development trends, economic growth indicators, highest and lowest growth indicators, geographical factors, natural, economic and social, demographic and environmental factors.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda farmasevtika sanoatini rivojlantirishga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaymoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022 yil, 1 yanvardagi “2022 - 2026 yillarda respublikaning farmasevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 55- sonli Farmoni qabul qilingan. Unda “...aholini sifatli, samarali va xavfsiz farmatsevtika mahsulotlari bilan ta‘minlashni yanada yaxshilash, farmatsevtika tarmog‘iga ilg‘or ilmiy-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish orqali tarmoqda ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta‘minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish maqsadi” belgilangan [1].

Bundan ko‘rinadiki, O‘zbekiston iqtisodiy geografiasida farmasevtika sanoatining rivojlanish tendensiyalari va hududiy tarkibini geografik o‘rganish orqali ulardagi muammolarni aniqlash, ilmiy xulosalar ishlab chiqish dolzarb sanaladi.

Ma‘lumki iqtisodiy geografik tadqiqotlarda, jumladan sanoat geografiasini o‘rganishda olib borilayotgan tadqiqot ob‘ekti bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega [2, 3, 10, 11].

Shu sababli biz o‘z oldimizga tadqiqot ob‘ekti sifatida belgilagan respublika farmasevtika sanoati va uning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish, unga ta‘sir ko‘rsatuvchi geografik omillarni aniqlash va ilmiy xulosa, taklif-tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qilib qo‘ydik. Buning uchun esa quyidagi vazifalarni belgiladik:

- mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar ustida ishlash va tadqiqotga oid statistik ma‘lumotlarni yig‘sh;
- olingan ma‘lumotlarni umumlashtirish va respublika sanoatida farmasevtika sanoatining tutgan o‘rnini aniqlash;
- farmasevtika sanoatiga oid statistik ko‘rsatkichlar asosida 23 yillik rivojlanish tendensiyalarni kuzatish, tahlil etish;
- farmasevtika sanoatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi geografik omillarni o‘rganish va xulosalar ishlab chiqish kabilar.

Tadqiqotlarda sanoat tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli biz tomonimizdan olib borilayotgan tadqiqotda O‘zbekiston farmasevtika sanoatining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratdik. Dastavval “rivojlanish” va “tendensiya” tushunchalarining mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tamiz. Aslida rivojlanish deganda tabiat va jamiyatdagi qonuniyatli o‘zgarishlar tushuniladi.


Ya‘ni bunda ma‘lum bir narsa va hodisalarning bir sifat holatidan boshqasiga, eskisidan yangisiga o‘tish tushuniladi. Rivojlanish inikosi bu - obyektning tarkibi yoki tuzilishining yangi sifat holatini baydo bo‘lishidir. U umumiy tamoyil sifatida tabiat va jamiyat, bilish tarixini anglab yetishdir. Iqtisodiyotda rivojlanishning evolyutsion va revolyutsion (inqilobiy) yo‘li ajratiladi. Evolyutsion yo‘l bu - obyektning bosqichma-bosqich sekin-asta sodir bo‘luvchi miqdor o‘zgarishlari bilan bog‘liq rivojlanishlardir [2, 3, 4, 6, 7].

Revolyutsion (inqilobiy) yo‘l esa obyekt tuzilmasidagi sifat o‘zgarishlaridan iborat rivojlanish hisoblanadi. Har ikkala yo‘l ham jamiyatni rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq evolyutsion rivojlanish yo‘li jamiyatni bosqichma-bosqich, keskin talofatlarsiz va portlashlarsiz bir sifatli asosdan, ikkinchi sifatli asosga olib o‘tib, muayyan vaqt talab qiladi. Revolyutsion (inqilobiy) rivojlanish yo‘li esa uning aksi hisoblanadi. Ya‘ni, ushbu yo‘lda jamiyat keskin sakrash qilish orqali (bunda jamiyat talofat ko‘rishi ham mumkin) bir tizimdan boshqa tizimga o‘tadi va eski asosiy tayanch nuqtalarni yo‘q qilish orqali amalga oshiriladi. Respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning bosqichma-bosqich, sekin-asta amalga oshiriladigan evolyutsion yo‘lini tanladi. Ushbu yo‘l respublika iqtisodiyotiga katta zarar yetkazmasdan, har bir sohadagi o‘zgarishlar va rivojlanishlar ma‘lum bir vaqt oralig‘ida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi natijasida o‘z samarasini berdi [8, 9, 12, 13].

Tendensiya iqtisodiyotdagi ma‘lum bir rivojlanishlarni ko‘tarilib yoki pasyishini ifodalash maqsadida ishlatiladi.

Bizga ma‘lumki mustaqillikdan so‘ng O‘zbekiston sanoati tubdan isloh qilindi. Natijada O‘zbekistonda ko‘plab yangi sanoat tarmoqlari vujudga keldi. Jumladan, O‘zbekiston farmasevtika sanoati ham eng yosh tarmoqlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur tarmoq 1993 yildan boshlab shakllana boshlagan. Hozirgi kunda respublika sanoat ishlab chiqarish tarkibida asosiy turdagi farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi juda ham oz, ya‘ni atigi 0,6 foizni hosil qiladi (1-rasm). Hozirgi kunda farmasevtika sanoatida


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha esa mazkur tarmoqdagi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 2023 yil, 1 yanvar ma‘lumotlari bo‘yicha 3402,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan [14,15]. Agar mazkur tarmoqni keyingi 23 yillik statistik ma‘lumotlarini kuzatadigan bo‘lsak shu davr oralig‘ida respublikada asosiy turdagi farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarishi o‘rtacha 106 foizdan o‘sib borganligini ko‘rishimiz mumkin (2-rasmga qarang).



1-rasm. O‘zbekiston ishlab chiqaradigan sanoati tarkibida asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarishi ulushi (2023.01.01 holatiga, foizda) [13].

Bundan ko‘rinadiki, respublikada ushbu tamoqning rivojlanish tendensiyasi bir qarashda bir me‘yorda va bir tekisda deya xulosa qilish imkonini beradi. Biroq, mazkur tarmoqni 2000 yildan to 2023 yilgacha bo‘lgan davriy o‘zgarishlarini 2-rasmda berilgan statistik ma‘lumotlar asosida alohida iqtisodiy tahlil qiladigan bo‘sak, aslida u ba‘zi yillarda rivojlanishning o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan past yoki yoqori ekanligini anglash qiyin emas. Chunonchi, u 2000 yilda 103,8 foizni, 2005 yilda 107 foizni, 2010 yilda 108,5 foizni, 2015 yilda 108,3 foizni, 2020 yilda 102 foizni, 2021 yilda 107,4 foizni, 2022 yilda 105,7 foizni va 2023 yilda esa 106 foizni tashkil qilgan.

O'rganilgan davrlardagi eng past ko'rsatkich 2000 yil (-2,2 foiz), 2020 yil (-4 foiz), va 2022 yil (-0,3 foiz)larda kuzatilgan (2-rasm). Eng yuqori o'sish ko'rsatkichlari esa 2005 (+1 foiz), 2010 (+2,5 foiz), 2015 (+2,3 foiz) va 2021 (+1 foiz) yillarda o'rganilgan davrdagi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. 2023 yilga kelib esa u o'rtacha ko'rsatkichga teng, ya'ni 106 foizni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. 2000-2023 yillarda O'zbekistonda asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish tendensiyalari, foizda [13]

Yuqoridagi 2-rasm ma'lumotlaridan shunday xulosa qilish mumkin, farmasevtika sanoatining rivojlanish tendensiyalarini beshta davrga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi davr 2000-2005 yillarni, ikkinchi davr 2005-2010 yillarni, uchinchi davr 2015-2020 yillarni va beshinchi davr esa 2020 va undan keyingi yillarni qamrab oladi. Bu davriy rivojlanishlarga esa ma'lum bir omillar ta'sir ko'rsatadi. Omillar ta'sirida esa rivojlanish tendensiyalari davriy tebranib, ya'ni goho pasayishi, goho turg'un bo'lishi va goho esa yuqori bo'lishligi kuzatiladi. Ushbu xulosa asosida quyida farmasevtika sanoatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga to'xtalib o'tamiz.

Yuqorida ko'rib chiqilgan respublikada asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish tendensiyalarining bunday davriy o'zgarishlariga ma'lum bir umumgeografik omillar ta'sir etadi, ya'ni ularga tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, demografik, tarixiy va ekologik kabi omillar kiradi. Mazkur umumgeografik omillar orasida quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Xom ashyo va materiallar omilining yetarli bo'lishi. Bu ayniqsa farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishda alohida ahamiyat kasb etadi.

2. Mehnat resurslari va asosiy vositalarlarning mavjudligi. Bunga asosan malakali kadrlar va sanoat korxonalar uchun yetarli mablag'lar, shuningdek asosiy vositalarning mavjudligi va ularni saqlash bilan bog'liq harajatlari kiradi.

3. Yoqilg'i va energiyaning mavjudligi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish jarayonida yoqilg'i va suv resurslari bilan ta'minlash zarurati nazarda tutiladi.

4. Siyosiy omil. Bunda mahalliy qonunchilik bilan o'zaro munosabatlar ko'rib chiqiladi.

5. Bozor omili. Bunda mahsulotni sotish bozorlariga yo'naltirilganligi hisobga olinadi.

6. Infratuzilma omili. Asosan bunda transport infratuzilmasiga alohida e'tibor qaratiladi va unga yo'naltirilganligi hisobga olinadi [5, 6, 7].

Bu omillardan kelib chiqib yuqoridagi 2-rasmga berilgan ma'lumotlarga yana bir e'tibor qaratsak, respublikada 2020 yilda farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish 2000 yildagi ko'rsatkichga nisbatan ham tushib (-1,8 foiz) ketganligini kuzatish mumkin. Mazkur davrda ijtimoiy geografik omillardan "pandemiya" omili eng ko'p va yuqori darajada ta'sir ko'rsatganligini anglaymiz.

Farmasevtika sanoati tarmog'ini hududiy tashkil etishda tabiiy sharoit omili katta ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda O'zbekistonda farmasevtika mahsulotlari muomalasi tizimini yanada yaxshilash yuzasidan majmuali chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bular asosida hozirda respublikamizning 12 ta viloyat, 1 ta avtonom respulika va 1 ta poytaxt Toshkent shahrida farmasevtika sohasini rivojlantirish bo'yicha hududiy bo'linmalari tashkil etilgan. Ularda mahalliy farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish uchun qulay geografik shart-sharoitlar yaratildi. Qulay tabiiy sharoitga ega bo'lgan hududlarda esa jami 8 ta farmasevtika erkin iqtisodiy zonalar barpo etildi. Jumladan, ularga Toshkent viloyatida joylashgan "Bo'stonliqfarm" va "Parkentfarm", Namangan viloyatida "Kosonsoyfarm", Andijon viloyatida "Andijonfarm", Sirdaryo viloyatida "Sirdaryofarm", Jizzax viloyatida "Jizzaxfarm", Suxondaryo viloyatida "Boysunfarm", Qoraqalpog'iston Respublikasida "Nukusfarm" kabilar kiradi. Bunday farmazonalarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad esa aholi va davolash-profilaktika muassasalarining farmasevtika mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini yetarli darajada qondirishdan iboratdir.

Bundan tashqari qo'shimcha qilib shuni aytib o'tmoqchimiz, ayni paytda O'zbekiston farmasevtika sohasida 231 ta ishlab chiqaruvchilar, 545 ta distribyutorlar, 15250 ta dorixonalar, 156 ta dorivor o'simlik mahsulotlarini qayta ishlovchilar, 160 ta davolash-proflaktika muassasalaridagi dorixonalar faoliyat olib bormoqda. Shu bilan bir qatorda 10766 ta ro'yxatdan o'tgan dori vositalari, 2925 ta ro'yxatdan o'tgan tibbiy buyumlar, 1327 ta ishlab chiqarilgan dori vositalari va 2633 ta ro'yxatdan o'tgan tibbiy texnikalar bor [14].

Yuqorida o'rganilagan tadqiqotlar asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- O'zbekiston farmasevtika sanoati sanoat tarmoqlari orasida eng yosh tashkil etilgan tartarmoqlardan biridir.

- 2000-2023 yillarda O'zbekistonda asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish tendensiyalarini o'rganish asosida rivojlanish tendensiyalarini yuqori, o'rta va past ko'rsatkichlari aniqlandi.

- farmasevtika sanoatining rivojlanish tendensiyalarini beshta davrga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi davr 2000-2005 yillarni, ikkinchi davr 2005-2010 yillarni, uchinchi davr 2015-2020 yillarni va beshinchi davr esa 2020 va undan keyingi yillarni qamrab oladi.

- respublikada asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish tendensiyalarining davriy o'zgarishlariga ma'lum bir umumgeografik omillar ta'sir etadi.

Bular asosida quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi:

1. O'zbekistonda farmasevtika sanoati tarmoqlarini yanada rivojlantirishda davlat tomonidan belgilangan qonun, qaror va farmonlar ijrosini qattiq nazoratga olish va ularni yanada takomillashtirib borish;

2. Farmasevtika sanoatiga oid ilmiy tadqiqot ishlarini amaliy tadbiridan keng foydalanish va bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni yanada ko'paytirish va b.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022 yil, 1 yanvardagi 2022 - 2026 yillarda respublikaning farmasevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 55- sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5834287>.
2. Abdinazarova, H. O. "Фарғона иқтисодий районида ташкил этилган кимё саноат корхоналар фаолиятининг географик тавсифи." *Экономика и социум* 3-2 (94) (2022): 351-356. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=48281612>.
3. Abdinazarova, X. O. "Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan." *Экономика и социум* 9 (76) (2020): 3-7.
4. Abdinazarova X.O. Kimyo sanoati geografiyasi (Farg‘ona iqtisodiy rayoni misolida). Monografiya. – Qo‘qon “Art-Press” 2023 y., 120 b.
5. Boasson V., MacPherson A. The role of geographic location in the financial and innovation performance of publicly trade pharmaceutical companies: empirical evidence from the United States. // *Environment and Planning A* 2001, volume 33, pp. 1431-1444. <http://journals.sagepub.com/doi/10.1068/a3431>.
6. Burns L. The Biopharmaceutical Sector’s Impact on the U. S. Economy: Analysis at the National, State, and Local Levels. // Archstone Consulting. – March 2009. <https://www.phrma.jp.org/wordpress/wp-content/uploads/old/library/industryprofile/PhRMA2009ProfileFINAL.pdf>.
7. Жўраев Ш.С. Ўзбекистонда саноатни барқарор ривожлантиришнинг минтақавий хусусиятлари. Монография. – Т.; 2016. – Б. – 24.
8. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon, and Abduvohidova Zumradxon. "Sectoral and Regional Characteristics of the Chemical Industry in Uzbekistan." *American Journal of Social and Humanitarian Research* 3.11 (2022): 333-338.
9. Oripovna, A. K. "The Importance of Establishing a Cluster System in Improving the Territorial Structure of the Chemical Industry of Fergana Economic District." *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences* 2.6 (2022): 135-140.
10. Komilova N., and Abdinazarova. H. O. "The role and geographical features of the chemical industry in the development of the economy of Uzbekistan." *Экономика и социум* 5-1 (84) (2021): 248-255.
11. To‘xliyev N., Xaqberdiyev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari. O‘quv qo‘llanma. T. O‘zME. 2006, 280 b.
12. To‘xliyev N. O‘zbek modeli: taraqqiyot tamoyillari. O‘zME. 2014 yil, 264 b.
13. O‘zbekiston sanoati. Statistik to‘plamlari-2000-2023 й.
14. O‘zbekiston Farmasevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi ma’lumotlari.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-II, НОМЕР-3-4

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-II, ISSUE-3-4

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz